

YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISHGA OID QONUNCHILIK ASOSLARI

Xadjamuratova Matlyuba Xashimovna,
Andijon davlat tibbiyot instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya. O'zbekistonni adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish tomon yo'l tutishining o'zi xalqni, jumladan yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga keng imkoniyatlar, huquqiy makon yaratilganini belgisidir. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasida davlatning innovatsion siyosatining fundamental huquqiy asosi sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: yoshlar, davlat, qonun, modda, ijtimoiy himoya.

ПРАВОВАЯ ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. Тот факт, что Узбекистан движется к построению справедливого гражданского общества, является признаком того, что созданы широкие возможности и правовое пространство для социальной защиты народа, в том числе молодежи. В статье анализируется Конституция Республики Узбекистан как фундаментальная правовая основа инновационной политики государства в вопросе социальной защиты граждан, особенно молодежи.

Ключевые слова: молодежь, государство, право, содержание, социальная защита.

LEGAL BASIS FOR YOUTH SOCIAL PROTECTION

Abstract. The fact that Uzbekistan is moving towards the establishment of a just civil society is a sign that ample opportunities and legal space have been created for the social protection of the people, including the youth. The article analyzes the Constitution of the Republic of Uzbekistan as the fundamental legal basis of the innovative policy of the state in the issue of social protection of citizens, especially young people.

Keywords: youth, state, law, content, social protection.

1. Dolzarbligi: Yoshlarga oid siyosatni yuqori bosqichga ko'tarish, muammolarni oldini olish, yechimini topish, fuqarolik jamiyati institutlarini yoshlar masalasidagi vakolatlarini amaliyot bilan bog'lashni kuchaytirish, qonunchilik bilan qonuniylikni sifat va samaradorligini, nazoratini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; yoshlarni sog'lom, ma'nan yetuk, barkamol o'sishiga qaratilgan muhit va ta'lim-tarbiyani kuchaytirish, ularni ilm-fanga ijobiy yondoshishiga ko'maklashish, yoshlarni ona-Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalab, ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, iqtisodiy tarmoqlar va ijtimoiy sohani turli yo'nalishlarini boshqarish va rivojlantirishda ishtirok etishga da'vat qilish; xalqaro hamkorlik va institutsional yondoshuvda yoshlar masalasini yanada kengaytirish kabi masalalarni ro'yobga chiqarish yoshlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini ochib beradi.

2. Metodlari:

Mazkur maqolada zamonaviy tarix fanida tadqiqotlar olib borishning muammoli-xronologik, ob'ektivlik, tuzilmaviy-tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlari dinamikasi o'rganilganda ularni uch guruhga bo'lish maqsadga muvofiqligi aniqlandi:

Birinchi guruhga 1991-2000 yillar oralig'ida qabul qilingan qonunlarni kiritish mumkin. 1991 yil 15 fevralda "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'g'risida"gi, 1991 yil 14 iyunda "OITS bilan kasallanishning oldini olish to'g'risida"gi, 1991 yil 18 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi, 1991 yil 20 noyabrda "Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi, 1992 yil 14 yanvarda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi, 1992 yil 13 yanvarda (so'ng yangi tahrir – 1998 yilda) "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida"gi qonun, 1992 yil 2 iyulda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (yangi tahrirda -1997 yil 29 avgust)lar qabul qilindi.

1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992 yil 9 dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi va "Surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo'lgan bemorlarni majburiy davolash to'g'risida"gi, 1995 yil 21 yanvarda Mehnat Kodeksi, 1996

yil “Fuqarolarni sog‘ligini saqlash to‘g‘risida”gi, 1997 yil 29 avgustda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, 1998 yil Oila Kodeksi, Fuqarolik Kodeksi va boshqa qator kodekslar, 1999 yil “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi, “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish to‘g‘risida”gi, 2000 yil 31 avgustda “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi qonunlarda yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasi turli yo‘nalishlarda huquqiy asoslandi. Shuningdek, 1991 yilda “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” va 1992 yilda “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya ratifikatsiya qilindi.

Ikkinchi guruhga 2001 yildan 2016 yilgacha qabul qilingan qonun hujjatlarini kiritish mumkin. Ushbu bosqichda 2001 yil 11 mayda “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to‘g‘risida”, 2002 yil 5 aprelda “Chiqindilar to‘g‘risida”, 2002 yil 4 aprelda O‘zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2003 yil 11 dekabrda “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”, 2004 yil 3 dekabrda “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”, 2006 yil 6 mayda “Iste‘mol krediti to‘g‘risida”, 2007 yil 2 oktyabrda “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”, 2007 yil 3 mayda “Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risida”, 2008 yil 10 sentyabrda “Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug‘urtasi to‘g‘risida”, 2008 yil 17 aprelda “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”, 2008 yil 7 yanvarda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”, 2009 yil 30 sentyabrda “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”, 2009 yil 1 oktyabrda “Elektr energiyasi to‘g‘risida”, 2010 yil 7 iyunda “Aholi o‘rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to‘g‘risida”, 2011 yil 5 oktyabrda “Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqalishi hamda iste‘mol qilinishini cheklash to‘g‘risida”, 2013 yil 27 dekabrda “Ekologik nazorat to‘g‘risida”, 2013 yil 23 sentyabrda “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”, 2014 yil 3 dekabrda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”, 2015 26 avgustda “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, 2011 yil 14 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo‘lishiga qarshi kurashish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazini tashkil etish to‘g‘risida Ozarbayjon Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi, Qirg‘iziston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasidagi bitimni (Ostona, 2006 yil 24 iyul) ratifikatsiya qilish haqida” gi qonuni qabul qilindi.

Uchinchi guruhga 2016 yildan 2021 yilda qabul qilingan qonun hujjatlarini kiritish maqsadda muvofiq. 2016 yil 26 dekabrda “Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi, 2016 yil 14 sentyabrda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi, 2017 yil 8 sentyabrda “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi, 2017 yil 25 avgustda “O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi, 2017 yil 3 yanvarda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi, 2019 yil 16 dekabrda “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi, 2019 yil 2 dekabrda “Volontyorlik faoliyati to‘g‘risida”gi, 2019 yil 29 oktyabr Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida, 2019 yil 23 oktyabrda “Ona suti bilan oziqlantirishni qo‘llab-quvvatlash hamda go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar oziq-ovqat mahsulotlariga doir talablar to‘g‘risida”gi, 2019 yil 16 oktyabrda “Masenatlik to‘g‘risida”gi, 2019 yil 11 martda “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi, 2020 yil 27 oktyabrda “Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to‘g‘risida”gi, 2020 yil 20 oktyabrda “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 15 oktyabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi, 2020 yil 23 sentyabrda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi, 2020 yil 24 iyulda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar, 2021 yil 15 dekabrda “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun, 2021 yil 13 sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash to‘g‘risida”gi, 2021 yil 12 mayda “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi, 2021 yil 29 aprelda “Aholini ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga doir choralar to‘g‘risida”gi, 2021 yil 1 aprelda “Tomorqa xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi, 2021 yil 20 yanvarda “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, 2019 yil 25 iyunda Xalqaro Mehnat Tashkilotining 1930 yildagi “Majburiy mehnat to‘g‘risida”gi 29-sonli konvensiyasiga bayonnomani (Jeneva, 2014 yil 11 iyun) ratifikatsiya qilish haqida, 2019 yil 4 martda Xalqaro Mehnat Tashkilotining xalqaro mehnat normalari qo‘llanilishiga ko‘maklashish uchun uch tomonlama maslahatlashuvlar to‘g‘risida”gi 144-sonli konvensiyasini (Jeneva, 1976 yil 21 iyun) ratifikatsiya qilish haqida. 2021 yil 7 iyunda “Nogironlar huquqlari

to'g'risida"gi konvensiyani (Nyu-York, 2006 yil 13 dekabr) ratifikatsiya qilish haqida, 2021 yil 4 iyunda Xalqaro Mehnat Tashkilotining mehnat xavfsizligi va gigienasiga ko'maklashish asoslari to'g'risida"gi 187-sonli konvensiyasini (Jeneva, 2006 yil 15 iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonunlar qabul qilindi. Ushbu qonunlar respublika xalqini, shu jumladan yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga xizmat qilgani bilan ahamiyatlidir.

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan huquqiy normalar qo'yidagilarga bo'linadi:

Xalqaro huquq normalari;
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
Konstitutsiyaviy qonunlar;
Parlament tomonidan qabul qilingan qonunlar;
Prezidentning farmon, farmoyish va qarorlari;
Vazirlar Mahkamasining qarorlari;

Davlat dasturlari;

Mahalliy davlat hokimiyatlarining qarorlari;

Fuqarolarning o'zi o'zi boshqarish organlari hujjatlari;

Davlat organlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarining yuqori organlarning huquqiy hujjatlarini bajarilishi bo'yicha qabul qilingan hujjatlari.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yetakchi huquqiy poydevor vazifasini bajarmoqda. Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni, birlamchi, asos soluvchi, yuridik kuchi bo'yicha eng yuqori xususiyatiga ega. O'zbekiston Konstitutsiyasida davlat siyosatining milliy negizini inson huquq va erkinliklariga sodiqlik, inson oliy qadriyat sifatida qadrlanishi, atrof ekologik muhitni saqlash, fuqarolarning munosib hayot kechirishini ta'minlash kabi ijtimoiy himoya yo'nalishlari ham tashkil etadi.

Konstitutsiyaning 1 maddasida "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat"[1] sifatida e'lon qilingan.

Konstitutsiyada belgilanganidek, birinchidan, xalq aholini takror barpo bo'lishida ishtirok etadi hamda jamiyatda tarbiyalangan kadrlar tomonidan davlat hokimiyati boshqariladi; Ikkinchidan, fuqarolar demokratik saylovlarda ishtirok etib, munosib nomzodlarni davlat hokimiyatiga lavozimga qo'yadi; Uchinchidan, davlat hokimiyati xalqning irodasini ifoda etgan holda, unga xizmat qilishi shart. Davlat hokimiyatini xalq manfaatlarini yo'lida vakolat olgan idoralar amalga oshiradi. Respublikada umuminsoniy prinsiplar asos qilib olingan, ya'ni inson eng oliy qadriyat sifatida himoyalanaadi. Shuningdek, yoshlar daxlsizligi ta'minlangan, ular qullik va boshqa tazyiqlardan, qadr-qimmatini poymol etilishidan himoyalanaadi.

Davlat ichki va tashqi siyosatida inson va jamiyat farovonligini ko'zlagan holda faoliyat yuritadi. Jamiyat rivojlanishi, farovon hayot garovi bo'lgan ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplariga asoslanadi.

Asosiy Qonunimizning II bo'limi aynan "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari"[2] deb nomlangan. Ushbu bo'limda fuqarolarning barcha huquqlari tenglik, ijtimoiy adolat prinsipiga asoslanib, daxlsizligi ta'minlanadi, ulardan mahrum etishga, daxl qilishga hech kimning haqqi yo'q.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilinishida, imtiyozlardan foydalanish ularni hayotiy maqsadlarga yetishishiga, jumladan, o'qishga kirishiga, ishga joylashishiga, sog'lig'ini tiklashiga, uy-joy bilan ta'minlanishiga va boshqa imkoniyatlardan foydalanishga yo'l ochib beradi.

Yoshlar mehnat qilishi, xohlagan kasb egasi bo'lishi konstitutsiyaviy asoslangan. Mehnat qilish jarayonida adolatli, xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak. Har kim ishsizlikdan himoyalinishi uchun davlat tomonidan chora-tadbirlar qo'llaniladi.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi"[3]. Yoshlar mehnatidan majburan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Ayniqsa, "bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, ahloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi"[4].

Shuningdek, "har kim dam olish huquqiga ega. Yollanib ishlovchilarga dam olish huquqiga ish vaqtining davomiyligini, dam olish va ishlamaydigan bayram kunlarini, haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tilini belgilash orqali ta'minlanadi"[5], Yoshlarni mehnat jarayonlarini ish vaqtini cheklash,

dam olish huquqini ta'minlab berish, majburiy mehnatning har qanday ko'rinishidan himoya qilish masalalari konstitutsiyaviy asoslangan. Ish vaqti va dam olish vaqti, mehnat ta'tili qonunchilikda qat'iy belgilangan.

Shuningdek, yoshlarda tug'ma nogironligi bo'lganda, mehnat jarayonlarida, orttirilgan kasalliklar tufayli mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, ota-onasi (vasiysi) yoki boquvchisini yo'qotganda va qonunda ko'rsatilgan hollarda ijtimoiy ta'minot oladi. "Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol harajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas"[6].

Qonunchilik va qonuniylik prinsipi xalqni, shuningdek yoshlarni har tomonlama ijtimoiy himoya qilinishiga huquqiy va amaliy jihatdan sharoit yaratib berishini anglagan holda III bob "Konstitutsiya va qonunning ustunligi"[7] ga bag'ishlangan. Ushbu bo'limda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati konstitutsiyaviy asoslangan. Fuqarolik jamiyati institutlari yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda katta kuch sifatida qudratga ega.

Yoshlar hayotida oila qurish muhim hisoblanadi. "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi"[8]. Konstitutsiyada ota-onaga katta mas'uliyat yuklatilganki, yoshlarni ijtimoiy himoya qilishda ularning xizmatlari beqiyos. Ota-ona bo'lish oliy baxt bo'lishi bilan birga, har ikki tomonga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Bu mas'uliyatni vijdonan bajarish har bir ota-onani konstitutsiyaviy fuqarolik burchidir. Ota-ona (vasiy) bolani: - voyaga yetguncha boqish; -tarbiyasi bilan uzluksiz shug'ullanish;- ta'lim olishi uchun keng sharoitlar yaratish; - sog'lom bo'lishi uchun vaqtda imkoniyatlardan foydalanish; - to'laqonli, barkamol yoshlar qatoriga qo'shilishi uchun g'amxo'rlik qilishga va b. majbur.

Yetim bolalar va ota-ona vasiylikidan mahrum bo'lgan bolalarga yuqorida keltirilgan tarzda g'amxo'rlik qilish davlat va jamiyat zimmasiga yuklatilgan, "shu maqsadda xayriya faoliyati"[9] rag'batlantiriladi.

Konstitutsiya asosida barcha farzandlarning tengligi ta'minlangan. Bolalarni ota-onalarining ijtimoiy holatini, nasl-nasabini yoki fuqarolik holatini ro'kach qilib kamsitilishi qat'iyat man etiladi. "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi"[10].

Prezident qasamyodiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu qasamyod siyosiy ahamiyatga egadir. Prezident xalqimizni, shuningdek yoshlarni huquq va erkinliklariga kafolat berishga, zimmasiga yuklatilgan vakolatlarni vijdonan bajarishga qasamyod qiladi. Prezident zimmasidagi barcha vakolatlar xalqimizni, shuningdek yoshlarni har tomonlama himoya qilish, ular uchun farovon hayotni ta'minlash maqsadidagi davlat va jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshirish jarayonlaridagi aholini ijtimoiy himoya qilinishiga yo'naltirilgan vakolatlari konstitutsiyaviy asoslangan. 100-moddada Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari keltirilgan bo'lib, "hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy va ekologik jihatdan rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish"[11] va boshqa vakolatlari fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan.

Konstitutsiyada yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari har bir moddasida o'z ifodasini topgan. Shuningdek, yoshlarga qo'yilgan majburiyatlar belgilangan:

- Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish;
- boshqa shaxslarni huquqlarini hurmat qilish;
- xalqimizning tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylash;
- atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;
- soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida to'lash;
- o'z hayotiga mas'uliyat bilan yondoshish;
- berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish;
- o'z vatanini asrash, uni rivojlantirish va b.

4. Xulosalar:

Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni sifatida fuqarolarni, ayniqsa yoshlarni ijtimoiy himoya qilish masalasida davlatni innovatsion siyosatining fundamental huquqiy asosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "barcha", "har kim", "hech kim", "hamma", "shaxs" kabi so'zlar bilan boshlangan moddalari tenglik prinsipi bilan sug'orilgan xalqparvar, insonparvar

qomus ekanligini namoyon etadi.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish O'zbekiston qonunchiligida takomillashtirilib, uning asosida amalga oshirilgan islohotlar mustaqillik shabodasini har bir yosh hayotida his qilishiga, ularni keng qamrovli ijtimoiy himoya qilinishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublkasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrirda. –Toshkent: O'zbekiston, 2023. 1-modda. –B. 1.
2. O'sha joyda. II bo'lim. –B. 5-15.
3. O'sha joyda. 42-modda. –B. 11
4. O'sha joyda. 44-modda. –B. 11
5. O'sha joyda. 45-modda. –B. 11.
6. O'sha joyda. 46-modda. –B. 11.
7. O'sha joyda, III bob . –B. 4.
8. O'sha joyda. 77-modda. –B. 18.
9. O'sha joyda. 77-modda. –B. 18.
10. O'sha joyda. 78-modda. –B. 18.
11. O'sha joyda. 123-modda. –B. 53.